

2018 yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4946,0** mlrd.so'mni, o'sish **8,6 %**ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **103,4%** ni tashkil etdi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi -**15,5%** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-iyul oylarida respublika korxonalari tomonidan 4946,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,3% ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 19,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 9,5 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 75,3 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar- iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 193,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan -24,9 % ga, gaz kondensati – 22,8 % ga , tabiiy gaz – 15,3 % ga , qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid (osh tuzidan tashari)-2.4 martaga oshganligini kuzatish mumkin.

Yanvar - iyul oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Ohoktosh, t	97991,0	78472,4	124,9
Gaz kondensati, ming t.	109,5	89,2	122,8
Tabiiy gaz, mln.kub.m	3723,7	3230,6	115,3
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid(osh tuzidan tashari)	85039,0	3477,6	244,5

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4391,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 88,8 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan kislorod ishlab chiqarish 2,4 martaga. tozalangan guruch – 2,1 martaga, aroq -11,1% ga, paxtadan iyigirilgan ip – 10,2% ga, polietilen – 4,9% ga, polipropilen -11,6% ga oshganligini va paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan), yumshoq bug'doy uni, karbonat dinatriya ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik
sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, t	34986,0	37232,0	94,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t	8036,9	8724,7	92,1
Tozalanqan guruch, t	3184,6	1487,4	214,1
Yumshoq bug'doy uni, t	44344,5	45283,2	97,9
Aroq, m.l. 100% spirt	2297,1	2067,5	111,1
Bug'doy noni, t	1464,2	1971,1	74,2
Makaron mahsuloti, t	1752,8	2564,1	68,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t	24690,0	23327,7	105,8
Tsment.beton yoki suniy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyimlar,t	300,0	297,9	100,7
Yul qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar, t	17000,0	32738,0	51,9
Paxtadan iygirilgan ip, t	2328,4	2112,9	110,2
Kislorod, ming.m3	6,2	2,6	236,1
Karbonat dinatriya, ming.t.	109,7	104,7	104,8
Polietilen, t.	227649,3	217061,4	104,9
Polipropilen, t.	59489,6	53283,7	111,6

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 287,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida issiqlik energiyasini ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,8 %, ga , elektr energiyani ishlab chiqarish 2,6 %, ga kamayishi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 73,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5% ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni - 99,3%, % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning - 24,0% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning - 58,3% ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 718,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,4%, ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 14,5% ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 31,9% dan 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 33,8% ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 71,1% dan ulushini), Taxiatoch (5,1%), Xo'jayli (3,4%), Amudaryo (3,2%), Mo'ynoq (3,1%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-iyul oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Shu bilan birga eng kam ulush Taxtakopir (0,3 %), Shumanay (0,3 %), Nukus (0,5 %), Qorao'zak (0,9 %) va Chimboy (1,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Mo'ymoq (2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 124,8 % ga), Amudaryo (114,7 % ga), Qonliko'l (112,1 % ga) Qorao'zak (109,2 % ga) va Xo'jayli (108,1 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Gulmurzaeva T.

Aloqa telefoni:

(0371) 230-82-09

